

ABDULLA AVLONIY-ADVANCED TEACHER OF UZBEK LITERATURE

Djumayeva Sanobar Absaatovna

Associate professor, PhD of TDPU named after Nizami,

Alimjonova Dilfuza Rovshan qizi,

2nd year master's student of TDPU named after Nizami

Annotation: The article deals with the life of Abdulla Avloni, his life, views, works, and their significance today.

Keywords: Abdulla Avloni, writer, education, work, literature.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, turli jabhalarda rivojlanish sari ildam odimlab bormoqda. Ushbu jarayon o'z-o'zidan yosh avlod ongiga, dunyoqarashiga, ayniqsa uning ta'lif-tarbiya jarayoniga o'z ta'sirini sezilarli darajada namoyon etib kelmoqda.

Mamlakatimizda ta'lif tizimini isloh qilish borasidagi olib borilayotgan chora- tadbirlarda ham aynan shu jihat talab qilinayotganligi bejiz emas. Chunki har bir millat o'z milliy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan milliy-ma'naviy meroslaridan kelajak avlod ta'lif-tarbiya jarayonida samarali foydalanmas ekan, bu o'z-o'zidan ma'naviy qashshoqlikka olib keladi.

2017- yilning 3-avgust kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyyolilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.Ushbu uchrashuda madaniyat va san'at sohasida yuzaga kelgan ko'plab muammolar o'rta ga tashlandi. Mazkur yig'ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng miqyosli ishlar xususida so'z bordi, yosh iste'dodlar tarbiyasi, madaniyatimiz va adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida yangi g'oya, tashabbusva takliflar bildirildi: "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yanabir o'ta muhim masala borki,unga alohida to'xtalib o'tish zarur deb bilaman, u ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liq. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek,bu masala biz uchun, haqiqatdan ham ,yo hayot-yo mamot,yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir."¹

Shu ma'noda Abdulla Avloniyning ta'lif-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lif-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o'quvchilar qalbida shakllantirish- da axloqiy va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda.Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlari va ularda axloq-odob tushunchalarining yoritilishi tarbiya masalasining ifodasi nafaqat badiiy,balki noyob tarixiy-pedagogik,ta'lifiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi.Avloniy asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz,yana bir bor shunga iqror bo'lamizki,uning asarlarida ifoda etilgan ta'lifiy,tarbiyaviyg'oyaviy, falsafiy pedagogik hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi.Avloniy asarlarining tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatan- parvarlik g'oyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini alohida ta'kidlab o'tmoq joiz.

Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasidatavallud topgan. Ijodkor o'zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda kata xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagogdir. U birinchilardan bo'lib o'zbek teatrini professional teatrga aylantirdi, matbuot, maorif sohasi rivojiga hissa qo'shdi. U Turkistonda ma'naviy-

¹ Shavkat Mirziyoyev.Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishningmustahkam poydevoridir. "Xalq so'zi", 2017-yil 4-avgust .

ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Avloniyning mehnati yuksak qadrlanib unga o'zbek madaniyati va adabiyotini yuksaltirishda, xodimlar tayyorlashda uzoq yillik mehnati uchun 1925-yilda "Mehnat qahramoni" unvoni, 1930-yilda "O'zbekiston maorifi zarbdori" unvoni berilgan.

Shuningdek, adib milliy ta'lif-tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo'shganligi uchun 2020-yil 30-sentyabr sanasida "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.²

Avloniy "Usuli jadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Ikkinchi muallim" (1915), "Maktab gulistoni" (1917) kabi darsliklar yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifga chorlaydi. XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning "Birinchi muallim" asari ham o'ziga xos o'ringa ega. Avloniy uni yozishda Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval" asariga suyanadi. Avloniyning "Ikkinchi muallim" asari "Birinchi muallim" kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobni shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atashimiz mumkin.

Abdulla Avloniy ko'plab asarlarini o'z davri muammosi bo'lgan ta'lif- tarbiyaga qaratgan holda yozgan. Abdulla Avloniy bola tarbiyasiga alohida muhabbat bilan qaragan edi. Shu sababdan ham adib, - "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlantirmak, axloqimizni kuchlantirmak lozim deydi u, - Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlari ilmlariga olim bo'lib, shogirdlariga ham bergen darslarini amal ila chaqishtirib o'rgatmaki lozimdir. Bu ravsh ta'lif ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilib, ular ilmli – odobli bo'ladilar". Adib yuqoridagi hurfikr gaplari bilan bolalarni tug'ilgan kunidan boshlab , ta'lif-tarbiyaga o'rgatmog'imiz kerak deydi. Hamza esa mehnatkash xalq ommasi va uning bolalarini o'qitish va tarbiyalashga katta e'tibor bergen. Hamza "bir iloj qilib kambag'al bolalarni aqchasiz... tarbiya va o'quvg'a boshlarini band qilmoq" choralarini izlaydi, she'r va maqolalarida bolalarni o'qishga chaqiradi. Abdula Avloniy bola kamolotida zakovat va fikrning ijobiylarini ta'sir kuchiga g'oyat yuqori baho berar ekan, u shunday deydi; "Zakovat insonning eng yaxshi fazilatlaridandir. Zakovatli kishilar biron ishni boshlamoqchi bo'lsalar uni har taraflama o'ylab ko'radilar. Shuning uchun ham ular katta hayotiy tajriba orttirib, kamolatga erishadilar. Zakovat hayotning barcha mushkul va jumboq masalalarini hal qilishda odamga hamrohdir: - Fikr tarbiyasi esa, eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan vazifadir. Shuning uchun Abdulla Avloniy bolaning fikrlash qobiliyatini o'stirishda muallimningroli katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy "Maktab gulistoni" asarining kirishqismida quyidagi:

Maktab –xazinai adabu ilm(u) izzating, Maktab- bog'i jannati firdavs , ne'mating, Maktab kishini jahl(u) doniyidan qilur xalos,Maktab –kalidi ka'bai qalb (u) zakovating.

Parchani epigraf qilar ekan, adib shunday deydi:

"Adabiy axloqiy maroq-u shavq ila o'quladurgan hikoyalar, she'r ila Turkiston makteblarining ikkinchi sinflaridan boshlab o'qutmoqg'a muvofiq ravishda yosh bolalar uchun yengil vazn va oson sheva uzra tartib berildi". Adib bolalarning ta'lif olishi haqida qanchalik qayg'urbanligini yuqoridagi gaplardan ham ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi parchaga e'tibor qilaylik:

Fikr agar yaxshi tarbiya topsa,
Xanjar olmosdan bo'lur o'tkir.
Fikrning oynasi o'lursa zang,
Ruh ravshan, zamin bo'lur benur.

² Shavkat Mirziyoyev.O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi," Xalq so'zi", 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.

Bu parcha ulug' pedagog Abdulla Avloniyning dil so'zlaridir. Adib ilm bilan tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham ikkisi bir – birdan ayrilmaydigan, birining vujudi birovga bog'langan jon ila tan kabidur deya o'zining ibratomuz fikrlarini keltirib o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining targ'ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma'naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo'lib xizmat qiladi. Bu ulug' adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlارимиз uchun ibrat maktabi, desak adashmaymiz.

Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev.Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. "Xalq so'zi", 2017- yil 4-avgust .
2. Shavkat Mirziyoyev.O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi," Xalq so'zi", 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.
3. Abdulla Avloniy..Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 6et.
4. Mamasoli Jumaboyev.(2004) Bolalar adabiyoti.-T:O'qituvchi, 51-57.
5. Abdulla Avloniy.(2009)Tanlangan asarlar.Maktab guliston(1-jild) T: Ma'naviyat.195.